

## O‘simlik va Hayvonlarni huquqiy muhofaza qilish ekologiyasi

**Andijon davlat pedagogika inistituti, Biologiya va gegografiya o‘qitish metodikasi kafedrası katta o‘qtuvchisi Usmonov Dilmurodjon**

**Andijon davlat pedagogika inistituti, Tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya Yo‘nalishi 2-kurs talabasi Botirov Mashhurbek Diyorbek o‘g‘li  
(botirovmashhurbek2108@gmail.com)**

**Andijon davlat pedagogika inistitutining Tabiiy fanlar fakulteti talabasi Samatov Oyatillo Shokirjon o‘g‘li  
([samatovoyatullo@gmail.com](mailto:samatovoyatullo@gmail.com))**

**Annatsiya:** Noyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan o‘simlik va hayvon turlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida. Biologiya resurslaridan oqilona foydalanish. 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va baliq ovlash qoidalari. Flora va faunaga zarar yetkazish jarimalar. Prezidentning 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

**Kalit so‘zlar:** Flora, fauna, qonunlar, qarorlar, farmonlar, moddalar, konvensiyalarga, kadastr.

**Ключевые слова:** Флора, фауна, законы, постановления, указы, статьи, конвенции, кадастр.

**Key words:** Flora, fauna, laws, decisions, decrees, articles, conventions, cadastre.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘simlik dunyosiga nisbatan mulkchilikning huquqiy holati o‘rnatilgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘simlik dunyosi davlat mulki -umummilliy boylik bo‘lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir (55-modda). O‘simlik dunyosi obektlari mulkchiligiga nisbatan xuddi shunday huquqiy holat “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (4- 2 modda),

“O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (3-modda), “O‘rmon to‘g‘risida”gi (3-modda), “Mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunlarda ham belgilangan. O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi me‘yoriy hujjatlar tabiiy sharoitda o‘sadigan o‘simlik dunyosi, shuningdek takror ko‘paytirish va genetik fondini saqlash uchun yekib o‘stirayotgan yovvoyi o‘simliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifasi floraning tur tarkibini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish, tabiiy o‘simliklar jamoalarining va yovvoyi o‘simliklar o‘sadigan muhitning bir butunligini saqlash, o‘simlik dunyosidan oqilona foydalanish va uni takror ko‘paytirishni ta‘minlash, yuridik va jismoniy shaxslarning o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatlarini huquqiy tartibga solish, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish qoidalari buzilganda aybdorlarga tegishlicha mulkiy, ma‘muriy, jinoiy javobgarlik jazo choralarini qo‘llashdan iborat bo‘ladi. O‘simlik dunyosi obektlarini muhofaza qilish va undan foydalanish bo‘yicha huquqiy holatni belgilashda O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi va “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning «Noyob va yo‘q bo‘lib ketayotgan o‘simlik va hayvon turlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Biologiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning tashqarisiga olib chiqish ustidan nazoratni kuchaytirish to‘g‘risida»gi qarori, alohida o‘rinni yegallaydi. Bu normativ-huquqiy hujjatlarda o‘simlik dunyosi obektlari, ushbu obektlardan foydalanish turlari, muddatlari, normativlari, foydalanuvchilarning huquq va majburiyatyalari, o‘simlik dunyosi obektlaridan foydalanishni cheklash, to‘xtatish va man yetish, o‘simlik dunyosi obektlarining monitoringi, davlat kadastri kabi masalalar tartibga solingan. O‘simlik dunyosidan foydalanish huquqi tushunchasi ham qonunda o‘z ifodasini topmagan. O‘simlik dunyosi tushunchasi yuridik adabiyotda ham hali tadqiqot predmeti bo‘lgan yemas. Bizningcha, O‘simlik dunyosidan foydalanish huquqi deganda, ma‘muriy-ruxsat berish huquqi va shartnoma asosida kelib chiqadigan hamda foydalanish huquqi yoki yegalik qilish huquqi yoxud yegalik qilish huquqi doirasida amalga oshiriladigan subektiv huquq, shuningdek o‘simlik dunyosidan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan

tegishli huquq tarmog'ida belgilangan huquqiy me'yorlar jamlanmasi ga aytiladi. Huquqiy adabiyotlarda faqat o'rmon tushunchasi va o'rmondan foydalanish huquqi tushunchalarigagina e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, o'simlik dunyosi tushunchasi o'rmon tushunchasiga nisbatan ancha keng bo'lib, undan ba'zi jihatlar bo'yicha farq ham qiladi. Masalan, o'rmon tushunchasiga dov-daraxtlar bilan qoplangan yerlar bilan bir qatorda, dov-daraxtlar bilan qoplanmagan, ammo shu maqsadlarga ajratilgan yerlarni ham kiritamiz.[1]

Bugungi kunda O'zbekiston faunasi 709 turdagi umurtqali, shu jumladan 470 turdagi qush, 109 turdagi sutemizuvchi, 64 turdagi sudralib yuruvchi, 63 turdagi baliq, 3 turdagi amfibiya hamda 15000 turdan ortiq umurtqasiz hayvonlardan tashkil topgan. Mamlakatimizda hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha 1997 yilda O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonuni, biologik resurslarni, shu jumladan hayvonot dunyosini saqlash va ulardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan bir qator qonunosti hujjatlar qabul qilingan. Shu bilan birga, O'zbekiston o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib, ushbu sohada xalqaro munosabatlarga integrasiyalashuv maqsadida qator muhim xalqaro ekologik normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risida"gi, "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq joylari to'g'risida"gi Konvensiyalarga qo'shildi, yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish bo'yicha davlatlararo bitimlar imzolandi.

2009 yilda nashr etilgan O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 184 turdagi yovvoyi hayvonning kiritilganligi hayvonot dunyosini muhofaza qilish borasida oldimizda ulkan vazifalar turganidan dalolat beradi. Chunonchi, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi qonunchilik talablarining buzilishi keng tarqalgan bo'lib, tabiatni muhofaza qilishga oid jami qonunbuzarlikning 40 foizga yaqinini tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2010-2014 yillar davomida biologik resurslarni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun 35 ming nafardan ortiq shaxslarga 1882,2 million so'm miqdorida jarima solingan, yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha esa 970,2 million so'mlik da'volar kiritilgan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik

palatasining bir guruh deputatlari tomonidan xalqaro amaliyot va milliy tajribani o`rganib, amaldagi qonun bo`shliqlarini bartaraf etish, qonun normalarini amalga oshirish bo`yicha aniq mexanizmlarni belgilash hamda huquqni qo`llash amaliyoti samaradorligini oshirish maqsadida “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida”gi qonunning yangi tahrirda tayyorlangani alohida ahamiyat kasb etadi.[2,3]

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O`zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi a`zolari mazkur qonun loyihasini atroflicha muhokama etib, unda hayvonot dunyosini muhofaza qilish va foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari, davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar va ularning vakolatlari aniq belgilanayotganligini, hayvonot dunyosi ob`ektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnomalar berish tartibi, yovvoyi hayvonlarni tutish hajmlarini belgilovchi aniq prosessual mexanizmlar o`rnatilayotganligini, hayvonot dunyosi ob`ektlarini mamlakatimizga olib kirish va olib chiqish qoidalari va shartlari aniqlashtirilayotganligini, ushbu sohadagi ishlarga keng jamoatchilikni jalb etish va faolligini oshirishga yo`naltirilgan normalar mustahkamlanayotganligini alohida e`tirof etdilar.

Bizning loyihada hayvonot dunyosi ob`ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish mexanizmlarining takomillashtirilayotgani ayni muddaodir. Chunki, amaldagi qonunning 8 moddasida hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish, hayvonot dunyosi davlat kadastrini masalalariga oid normalar belgilangan. Hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish va hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish Davlat byudjeti mablag`lari hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Biroq, ushbu ishlarni ham O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari, ham qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishini belgilash respublika va mahalliy darajadagi mavjud tabiatni muhofaza qilish fondlari hamda turli grant mablag`larini ushbu maqsadlarga jalb qilish imkonini yaratadi (qonun loyihasining 15-moddasi). Bu kadastr ishlarini yuritish sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun fraksiyamiz hayvonot dunyosining davlat kadastrini yuritish uchun boshqa mablag`larni ham jalb qilishni maqbul deb hisoblaydi. Ayni shu nuqtai nazardan, O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a`zolarining bu ishlar faqat O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari hisobidan amalga oshirilishi zarur, tabiatni

muhofaza qilish fondlarining mablag`laridan esa Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish maqsadida foydalanish lozim, degan fikriga qo`shilib bo`lmaydi. XDP fraksiyasining bu boradagi pozitsiyasi biz uchun tushunarsiz. Chunki Davlat byudjetidan tashqari mablag`larni hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish maqsadida jalb etish Davlat byudjeti mablag`larini iqtisod qilishga olib keladi. Bu esa Davlat byudjetidan ijtimoiy sohani moliyalashtirishga, partiya elektorati hisoblanadigan kam ta`minlangan aholi qatlamini yanada qo`llab-quvvatlashga zamin yaratadi.[4]

Shuningdek, qonun loyihasining 36-moddasida ov qilishda taqiqlangan qurollar va ov qilish usullarini qo`llashga yo`l qo`yilmasligi holati belgilanmoqda. O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a`zolarining fikricha, mazkur moddada taqiqlangan qurollar hamda ov qilishning taqiqlangan usullarini to`liq bayon etish lozim. Biroq, bizningcha, qonun normasida barcha taqiqlangan qurol hamda ov qilishning taqiqlangan usullarini sanab o`tishning imkoni yo`q. Chunki, vaqt o`tishi bilan turli-tuman ov qurollari hamda usullari paydo bo`lishi, ularning ayrimlari bizning mamlakatimizda taqiqlanishi mumkin. Shuning uchun taqiqlangan qurol va usullarning O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi raisining buyrug`i bilan tasdiqlangan hamda O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro`yxatga olingan “O`zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va baliq ovlash Qoidalari”da aks etganligini to`g`ri, deb hisoblaymiz.[1,2,5]

Qonun loyihasining 49-moddasi bo`yicha ham partiya fraksiyalari o`rtasida turli tortishuv va bahs-munozaralar kelib chiqmoqda. Bu boradagi muxolifat fraksiyalar taklif etayotgan masala, ya`ni hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi bo`yicha javobgarlikni yanada oshirish masalasiga fraksiyamiz qo`shilmaydi. Chunki, amaldagi qonunchilik, xususan, O`zbekiston Respublikasi Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksining 63, 90, 92, 93, 94 va 222-moddalari hamda O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 202-moddasida ushbu yo`nalish bo`yicha javobgarlik masalalari aniq belgilangan.[1,4]

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikda g`ayriqonuniy ov mahsulotlarini qabul qilish, ov qilish, baliq tutish, hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish, hayvonlar yashaydigan muhitni muhofaza qilish hamda zoologik va botanik kolleksiyalarni vujudga keltirish va ular bilan savdo qilish qoidalarini buzish,

noyob yoki yo`q bo`lib ketish xavfi mavjud bo`lgan hayvonlarni yo`q qilib yuborish, o`lja olish, qirilib ketishi, soni kamayib ketishi yoki yashash muhiti buzilishiga sabab bo`lishi mumkin bo`lgan boshqa harakatlarni sodir etganlik uchun ma`muriy hamda hayvonot dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarliklar belgilangan. Shu bois, bizningcha, bu sohadagi qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish hamda qonunbuzarlarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini ta`minlash maqsadga muvofiqdir. Ekologiyaga zarar yetkazish va hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik uchun jarimalar oshiriladi. O`zbekistonda atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog`liq jinoyatlar og`ir jinoyatlar toifasiga kiritiladi. Shuningdek, hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo`lish va chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash uchun jarimalar miqdori sezilarli darajada oshiriladi. Ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazish, o`simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish bilan bog`liq jinoyatlar og`ir jinoyatlar toifasiga kiritiladi. Bu prezidentning 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorida belgilandi. Qayta nomlangan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o`zgarishi vazirligiga 1-sentabrga qadar Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash topshirildi. Xuddi shu sanaga qadar davlat o`rmon fondiga kiritilmagan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga qo`yiladigan moratoriy talablarini buzganlik uchun ma`muriy jarima miqdori 5 baravarga oshiriladi. Shu bilan birga, noqonuniy kesilgan daraxt o`rniga uning kompensatsiyaviy daraxt ko`chatlarini aynan daraxt kesilgan joyga ekish majburiyati belgilandi. Bundan tashqari, yuridik shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 300 baravarigacha bo`lgan miqdorda moliyaviy jarimalar qo`llanadi. O`zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlarning noqonuniy ovlanishi oqibatida hayvonot dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undirish summaları 10 baravarga hamda o`simliklarning o`sisdan to`xtash darajasigacha shikastlantirish yoki yo`q qilish bilan ularga yetkazilgan zararining undirilishi summaları 5 baravarga oshiriladi. Sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarni to`plash, tashish, joylashtirish, zararsizlantirish, saqlash, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va realizatsiya qilish chog`ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish, shuningdek, qattiq maishiy va qurilish chiqindilarini belgilanmagan joylarga tashlash hamda suyuq maishiy chiqindilarni to`kkanlik uchun ma`muriy jarimalar miqdori 10

barobarga oshirgan holda qo‘llanadi. Shu bilan birga, yuridik shaxslarga nisbatan BHMning 100 dan 300 baravarigacha bo‘lgan miqdorda moliyaviy jarimalar joriy etiladi. Suvlarni ifloslantirish yoki bulg‘atish, suv to‘plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, shuningdek, suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo‘l qo‘yilishi shartlari to‘g‘risidagi talablarini buzganlik uchun ma‘muriy jarimalar miqdori 5 baravarga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimiz o‘simlik, hayvonlarni asrab avaylashimiz bizning majburiyatimiz hisoblanadi. Kelajak avlodlarmizga biologik resurslarni butunligicha yetkazmog‘imiz bizning burchimizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi S. Buriev, D. Maxkamova, V. Sherimbetov 2019 Noshir
2. Ekologiya T. Tilovov HILOL NASHRIYOTI.
3. O‘simliklarni muhofaza qilish va foydalanish asoslari. (oefen.uz)
4. Arxiv.uz
5. M.D Botirov, O.Sh Samatov, O.M Muxsinboyev Chiqindilarni qayta ishlash davr talabi
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/05/zero-waste/>.

# Research Science and Innovation House

